



MAVZU: TADBIRKORLIK SUBYEKTI TOMONIDAN ONLAYN-NKM YOKI VIRTUAL KASSA QO'LLANISHI TARTIBI

Muminov Azizbek Yakubaliyevich.

*Farg'ona imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun
ixtisoslashtirilgan maxsus texnikum o'qituvchisi*

Annotatsiya: Onlayn Nazorat-Kassa Mashinalari va virtual kassa tizimi qo'llanilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori

Kalit so'zlar: Onlayn-NKM va (yoki) virtual kassa, TXKM bilan tadbirkorlik subyekti o'rtasida tuzilgan shartnoma

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 noyabrdagi 943-son qaroriga Aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshirishda onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassa tizimini qo'llash tartibi to'g'risida Nizomida bu Tadbirkorlik subyekti tomonidan onlayn-NKM yoki virtual kassa qo'llanishi tartibi batafsil bayon etilgan.

Tadbirkorlik subyektlari Davlat reyestriga kiritilgan onlayn-NKM va (yoki) virtual kassalarni mustaqil sotib olishi hamda TXKMLarni ixtiyoriy tanlash huquqiga ega. Onlayn-NKM va (yoki) virtual kassaga kafolatli uzluksiz texnik xizmat ko'rsatish TXKM bilan tadbirkorlik subyekti o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi. TXKM tomonidan fiskal modul o'rnatilgan va ishchi holatga keltirilgan onlayn-NKM yoki virtual kassa murojaat tushgan kundan boshlab bir ish kuni ichida tadbirkorlik subyektiga taqdim etiladi.



TXKM tomonidan onlayn-NKM yoki virtual kassa nosozligi davrida tadbirkorlik subyektining savdo yoki xizmat ko'rsatish shahobchasiga bir kun ichida zaxiradagi onlayn-NKM yoki virtual kassasi o'rnatib beriladi.

Tadbirkorlik subyekti tugatilgan, shuningdek, fiskal modul yaroqsiz holatga kelgan, amal qilish muddati tugagan, xotirasi ma'lumotlar bilan to'lgan, yohud boshqa ko'zda tutilmagan hollarda ushbu fiskal modullar tadbirkorlik subyekti tomonidan TXKMga qaytarilishi lozim.

Onlayn-NKM yoki virtual kassa yo'qotilgan yoki o'g'irlangan hollarda tadbirkorlik subyekti tomonidan bir ish kunidan kechikmay TXKM xabardor qilinadi. Davlat soliq xizmati organlarida tadbirkorlik subyektlari tomonidan foydalanilayotgan onlayn-NKM va virtual kassa to'g'risidagi ma'lumotlar shakllantiriladi. Maxsus axborot tizimidagi shaxsiy kabinetlarga elektron raqamli imzo kaliti orqali kiriladi.

Onlayn-NKM yoki virtual kassa har kuni ish boshlanishidan oldin tadbirkorlik subyektining mas'ul shaxsi tomonidan umumiy texnik holati, sozligi hamda sana va vaqt aniq ko'rsatilishi yuzasidan tekshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5813-son **Farmoni** bilan tasdiqlangan grafikda ko'rsatilgan muddatlar tugagandan keyin, aholi bilan pulli hisob-kitob qiluvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan xaridorlarga pul mablag'lari qabul qilinganligini tasdiqlovchi onlayn-NKM yoki virtual kassa chekini majburiy tartibda berilishi lozim.

Onlayn-NKM yoki virtual kassani qo'llash jarayonida ma'lumotlarni operatorga real vaqt rejimida yetkazib berishning texnik imkoniyati mavjud bo'lmagan taqdirda, shu jumladan, Internet tarmog'idagi vaqtincha uzilishlar bo'lganda xaridorlarga (mijozlarga) amalga oshirilgan xarid uchun cheklar offlayn



rejimida berilishi mumkin. Bunda birinchi offlayn rejimda shakllangan chekni 24 soat ichida operatorga uzatilishi ta'minlanishi zarur.

Onlayn-NKM yoki virtual kassadan foydalanish jarayonida nosozlik yuzaga kelgan hollarda tadbirkorlik subyektiga bu haqda TXKMning sall-markaziga qo'ng'iroq qilishi yoki bevosita tashrif buyurishi yoxud soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali xabardor qilishi shart. TXKM ma'lumotlar tushgan vaqtdan boshlab bir soat ichida tadbirkorlik subyektiga qarashli turg'un savdo (xizmat ko'rsatish) shahobchasi joylashgan manzil bo'yicha davlat soliq xizmati organini maxsus axborot tizimi orqali xabardor qiladi.

TXKM zaxiradagi onlayn-NKM va (yoki) virtual kassani o'rnatgunga qadar tadbirkorlik subyektiga xaridorlar bilan pullik hisob-kitoblarni, davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan, ushbu Nizomga 4-ildavaga muvofiq maxsus kvitantsiya daftari asosida amalga oshiradi.

Onlayn-NKM yoki virtual kassa, shuningdek, Internet aloqasi doimiy ishchi holatda bo'lishi uchun javobgarlik shaxsan tadbirkorlik subyektiga yuklanadi (Internet provayderi yoki mobil aloqa operatori ish faoliyatida yuzaga keladigan ayrim texnik muammoli holatlar bundan mustasno).

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagifarovon bo'ladi" Toshkent – "O'zbekiston"-2024.
2. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 noyabrdagi 943-son qaroriga Aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshirishda onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassa tizimini qo'llash tartibi to'g'risida



Internet manbalari:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot markazi sayti: www.press-service.uz
2. O`zbekiston Respublikasi Davlat Hokimiyati portali: www.gov.uz
3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati, 2004, UNDP DDI: Programme
4. www.soliq.uz, www.norma.uz